



MILLATNI BIRLIKKA CHORLAGAN SHOIR



Turdi farog`iy

(XVII asr o‘rtalari -1699/1700)



TIAME



•O‘zbek adabiyotida hajviyot rivojiga sezilarli hissa qo‘shtgan shoir Turdi Farog‘iy Buxoroda tug‘ildi va shu yerda shoir sifatida shakllandi.

**•Tug`ilgan yili
•ma'lum emas.**



Ilk ma'lumot



- Ulkan hajviy va lirik iste'dod egasi, shoir Turdi Farog'iy haqidagi dastlabki ma'lumotlar **XX asrning 20- yillarida** paydo bo'ldi.
- Kattaqo'rg'onlik adib **Abdulhamid Majidiy** (1902—1938) uning bir dasta qo'lyozma she'rlarini topib, matbuotda e'lon qildi va u haqda dastlabki ma'umotni berdi.



IKKI TAXALLUS



TILAME

- Turdining ismi-sharifi, hayot yo'lidaǵi sanalar to'la ma'lum emas. “**Turdi**” taxallusidir. Ayrim she'rlarida bu taxallus “**Farog'iy**” bilan yonma-yon keladi. Shunga qaraganda, uning ikki taxallusi bo'lgan. Shu sababli, uni **Turdi Farog'iy** deb atagan ma'qul.



TILAME

• Ma'lum bo'lishicha, *Turdi o'zbeklarning yuz degan urug'idan.* Buxoroda, ashtarxoniy hukmdorlardan Nodir Muhammad va uning o'g'illari hukmronligi yillarida yashagan.





TILAME

Shoirning bizgacha hammasi bo'lib, 18 ta she'ri yetib kelgan.

- Hajmi — 434 misra.
- She'rlarning 12 tasi - g'azal;
- 5 tasi — muxammas;
- 1 tasi — fard.
- *** She'rlardan ikkitasi fors tilida, qolganlari o'zbekcha yozilgan.
- Turdining she'rlarini mavzu yo'nalishiga ko'ra, ishqiy-falsafiy va ijtimoiy-siyosiy kabi ikkiga bo'lish mumkin.




She'r bu –dard!



- Shoirning aksariyat she'rlarida zamonning shiddatli sadolari o'z ifodasini topgan.
- Jumladan, ularda shoirning baxtli-baxtsiz kunlari, atrofida yuz berib turgan voqealarga jonli va qaynoq munosabati, bir tomondan, olqish, ikkinchi tomondan g'azab-u nafrat, bir tomondan, pushaymonlik, ikkinchi tomondan, yaxshi kunlar xotirasi bilan yashash singari g'oyat murakkab, ziddiyatli kechinmalar namoyon bo'ladi.

“Tor ko`ngullik beklar...” g`azali

- «*Tor ko ‘ngullik beklar...*» she’ri g‘azal janrida yozilgan. U adabiyotimiz tarixidagi xalqni milliy birlikka chaqirgan, o‘zaro tenglikka da’vat etgan, hududiy yaxlitlikni targ‘ib qilgan siyosiy ruhdagi birinchi she’r sifatida alohida e’tiborga molikdir.





G`azal sharhi




- Tor ko'ngullik beklar, man-man demang, kenglik qiling,
- To'qson ikki bovli o'zbak yurtidur tenglik qiling.



She'rning dastlabki satrlaridayoq mamlakatda kuchayib borayotgan notinchlik, beklarning bir-birlari bilan yurt talashishga kirishgani his etiladi. Shoir ularni „kenglik"ka chaqiradi. Yurtni tasarruf etishda to'qson ikki o'zbek urug'ini „tenglik"ka undaydi.

- Birni Qipchoq-u Xito-yu birni Yuz, Nayman demang,
- Qirq-u Yuz, Ming son bo'lub, bir jon oyinlik qiling.



Qipchoq, Xitoy, Yuz, Nayman, Qirq, Ming — bular o'zbek urug'larining nomlari. Baytning ikkinchi satrida qirq, yuz, ming so'zlari urug' nomidan tashqari sonni ham anglatib, shoir kishilarni bo'linmaslikka, birlashishga chaqirayapti.

Bir yaqodin bosh chiqorib, barcha bir to'ng'a kirib,
Bir o'ngurluk, bir tirizlik, bir yaqo, yenglik qiling.



She'rda birlashish fikri xalqimizda keng tarqalgan „Bir yoqadan bosh chiqarmoq” iborasi asosida berilmoqda. Shoир bu ramziy iborani yanada kuchaytirgan, barchani „bir to'n”ga „kiritgan”. To'nning „yaqo”, „o'ngur” (etak), „yeng”, „tiriz” (yelka qism)i vositasida birlik g'oyasini jonli va xalqona ko'rsatib berishga muvaffaq bo'lган.



Oxirgi ikki baytda o‘z mulki, ya’ni mamlakatini boshqarishni uddasidan chiqmagani holida boshqa yerlarga ko‘z olaytirayotgan beklarni tanqid qiladi, yuragida mardlar kabi maydonda zahmat chekish javhari — jur’ati yo‘q yurt kattalariga o‘zining achchiq kinoyasini, istehzosini bildirishga jur’at etadi. G‘azalda o‘zidan kechib maydonta lab bo‘lолmaydigan, ammo turli o‘shag-u ig‘volar bilan el orasini buzadigan kimsalar pardoz qiluvchi satang ayollarga o‘xshatib «yuzga upo-enlik qiling» deya kulgi qilinadi:

- *Kim qo ‘yubdur, uhdayi o‘z mulkungizdin chiqmayin,*
 - *Ikki, uch, to ‘rt da ’vosin etmakni ko ‘tahlik qiling.*
-
- *Mardlar maydon chekib, rangin ko ‘tarib zaxmlar,*
 - *Sizga yo ‘q, ul javhar-u yuzga upo-enlik qiling.*



TIIAME



O`ylab ko`ring!



TILAME

- 1. Turdining «Tor ko‘ngilli beklar» tarzida boshlanadigan g‘azalining barcha davrlardagi ahamiyati nimadan iborat deb o‘ylaysiz?
- 2. O‘zi mansub bo‘lgan urug‘ni bilishning yaxshi tomoni nimada? Qanday holda u yomonlikka aylanishi mumkin?
- 3. Siz o‘zingiz mansub urug‘ni bilasizmi? Necha otangizni bilasiz?